

## AKUSHERLIK QON KETISHIDA DAVOLASHDA QO'LLANILADIGAN DORI VOSITALARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

<sup>1</sup>Xurmatova Dilorom Adashevna

ToshDavTU Termiz filiali Akusher-ginekologiya va oilaviy  
shifokorlikdaginekologiya kafedrasini mudiri, t.f.n.

<sup>2</sup>Olloyorova Barno To'liqin qizi

ToshDavTU Termiz filiali Akusher-ginekologiya va oilaviy shifokorlikda  
ginekologiya kafedrasini 2-bosqich klinik ordinatori,  
Termiz shahri, O'zbekiston

**Dolzarbli.** Akusherlik qon ketishi (AKK) — onalar o'limining yetakchi sabablardan biri bo'lib, barcha tug'ruqdan keyingi asoratlarning 25–30% ini tashkil etadi. Ushbu tezida qon ketish holatlarida qo'llaniladigan asosiy dori vositalari — uterotoniklar (oksitotsin, metilergometrin), antifibrinolitiklar (traneksamik kislota) va prostaglandin analoglarining (misoprostol, karboprost) samaradorligi baholandi. Klinik kuzatuvlar asosida har bir preparatning ta'siri, samaradorlik darajasi va xavfsizligi tahlil qilindi. Akusherlik qon ketishi — tug'ruq va tug'ruqdan keyingi davrda bachadonning yetarli qisqarmasligi, bachadon bo'yni yoki yo'ldosh yo'llarining shikastlanishi, koagulopatiyalar yoki yo'ldosh qoldiqlari bilan bog'liq og'ir holatdir. Qon ketishning og'ir darajasi onaning hayoti uchun bevosita xavf tug'diradi. Dunyo sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, har yili 14 million ayolda tug'ruq bilan bog'liq qon ketish kuzatiladi va ularning 70 mingdan ortig'i shu sababli hayotdan ko'z yumadi. Shuning uchun AKKni oldini olish va erta davolashda uterotonik preparatlar, traneksamik kislota, prostaglandinlar va gemostatik vositalarning o'rni beqiyosdir.

**Material va usullar.** Tadqiqot guruhi: 2023–2024 yillarda Surxondaryo viloyati tug'ruqxonalari 60 nafar AKK bilan og'irgan ayol. Baholangan preparatlar: Oksitotsin (10 IU) — bachadon tonusini oshirish uchun. Metilergometrin (0,2 mg) — bachadon qisqarishini rag'batlantiruvchi vosita. Traneksamik kislota (1 g vena ichiga) — qon ivish tizimini mustahkamlash uchun. Misoprostol (800 mkg per rectum) — bachadon qisqarishini kuchaytiruvchi prostaglandin analogi. Kombinatsiyalangan qo'llash (Oksitotsin + Traneksamik kislota) — 15 bemorda sinov tariqasida. Baholash mezonlari: qon yo'qotish hajmi, gemoglobin darajasi, bachadon tonusi va qayta qon ketish chastotasi.

**Natijalar.** Oksitotsin: 80% hollarda qon ketishni 10 daqiqa ichida to'xtatgan, ammo ayrim hollarda (10%) bachadon gipotoniya davom etgan. Metilergometrin: 75% samaradorlik, lekin arterial gipertenziya va ko'ngil aynish kabi nojo'ya ta'sirlar qayd etilgan. Traneksamik kislota: 85% hollarda qon yo'qotish hajmini sezilarli kamaytirgan, gemostatik ta'siri tez boshlanadi. Misoprostol: 70% samaradorlik, ayniqsa resurs cheklangan joylarda samarali bo'lgan, ammo isitma va diareya holatlari kuzatilgan. Kombinatsiya (Oksitotsin + Traneksamik kislota): 90% hollarda samarali bo'lib, gemodinamik barqarorlik tez tiklangan.

**Muhokama.** Natijalar shuni ko'rsatadiki, uterotoniklar (oksitotsin, metilergometrin) qon ketishning birlamchi oldini olish va bachadon gipotoniya bartaraf etishda asosiy vositalardir. Traneksamik kislota antifibrinolitik ta'siri orqali qon yo'qotish hajmini sezilarli kamaytiradi, ayniqsa oksitotsin bilan birgalikda qo'llanganda sinergik

ta'sir ko'rsatadi. Misoprostol esa past resursli sharoitlarda (inyeksiya vositalari bo'lmagan joylarda) samarali alternativ hisoblanadi. Shuningdek, dori vositalarini erta va ketma-ket qo'llash, qon ketishning boshlanganidan keyingi dastlabki 10–15 daqiqada davolash natijasini keskin yaxshilaydi. Kombinatsiyalangan yondashuv — bachadon qisqarishini ta'minlash va fibrinolizni cheklash orqali kompleks hemostazni tiklaydi.

**Xulosa.** Oksitotsin — AKK profilaktikasi va boshlang'ich davolashda birinchi tanlov dorisi hisoblanadi. Traneksamik kislota — uterotoniklar bilan birgalikda samaradorlikni oshiradi va qon yo'qotish hajmini 25–30% gacha kamaytiradi. Metilergometrin — yuqori samarali, lekin gipertoniya bilan og'riqan bemorlarda ehtiyotkorlik bilan qo'llanishi lozim. Misoprostol — inyeksiya vositalari mavjud bo'lmagan sharoitlarda muhim alternativ hisoblanadi. Eng yuqori samaradorlik (90%) oksitotsin va traneksamik kislota kombinatsiyasida kuzatilgan. Umumiy xulosa: Akusherlik qon ketishida dori vositalarini erta, kompleks va individual yondashuv asosida qo'llash onalar o'limini kamaytirishda asosiy omildir. Surxondaryo viloyati tajribasi shuni ko'rsatadiki, uterotonik va antifibrinolitik preparatlarning kombinatsiyasi davolash samaradorligini oshiradi, qon yo'qotish hajmini kamaytiradi va bemorlarning hayotini saqlab qolishda muhim klinik ahamiyatga ega.